O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

Sevara PULATXODJAYEVA,
O‘qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail:sevarapulatxodjayeva@gmail.com, ORCID ID: 0009-0001-1063-9575

PhD G.Masharapova taqriz ostida

SHARQ VA G‘ARB FAYLASUFLARINING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy fazilatlarni egallashi, ezgulik va adolatga intilishi, ilm-ma’rifat orqali o‘zligini anglash masalalari Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy qarashlari asosida yoritiladi. Shuningdek, Suqrot, Aflotun, Aristotel, Jan-Jak Russo va Immanuil Kant kabi G‘arb faylasuflarining axloq, tarbiya, fazilat, burch, erkinlik va shaxs mas’uliyati haqidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, axloq, tarbiya, komil inson, fazilat, ezgulik, adolat, ilm-ma’rifat, axloqiy mas’uliyat, Sharq falsafasi, G‘arb falsafasi.

ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ФИЛОСОФОВ НА ДУХОВНОЕ И НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация

В данной статье анализируется формирование и развитие вопроса духовного и нравственного воспитания в восточной и западной философской мысли. Рассматриваются вопросы духовного совершенства человека, приобретения нравственных качеств, стремления к добру и справедливости, а также реализации собственной идентичности через науку и просвещение, исходя из взглядов восточных мыслителей – Абу Насра аль-Фараби, Абу Али ибн Сины, Абу Райхана аль-Бируни, Юсуфа Хос-Хаджиба и Алишера Навои. Также анализируются взгляды западных философов, таких как Сократ, Платон, Аристотель, Жан-Жак Руссо и Иммануил Кант, на нравственность, воспитание, добродетель, долг, свободу и личную ответственность.

Ключевые слова: Духовность, нравственность, воспитание, совершенная личность, добродетель, добро, справедливость, наука и просвещение, нравственная ответственность, восточная философия, западная философия.

VIEWS OF EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHERS ON SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION

Annotation

This article analyzes the formation and development of the issue of spiritual and moral education in Eastern and Western philosophical thought. The issues of human spiritual perfection, the acquisition of moral qualities, the pursuit of goodness and justice, and the realization of one's identity through science and enlightenment are covered based on the views of Eastern thinkers - Abu Nasr Al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, Abu Rayhan Al-Biruni, Yusuf Khos Hajib and Alisher Navoi. The views of Western philosophers such as Socrates, Plato, Aristotle, Jean-Jacques Rousseau and Immanuel Kant on morality, education, virtue, duty, freedom and personal responsibility are also analyzed.

Key words: Spirituality, morality, education, perfect person, virtue, goodness, justice, science and enlightenment, moral responsibility, Eastern philosophy, Western philosophy.

Kirish. Insoniyat tarixida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Chunki jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy, siyosiy yoki texnologik yutuqlar bilan emas, balki insonlarning ma’naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy mas’uliyat darajasi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, globallashuv, axborot oqimining keskin kuchayishi va turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri sharoitida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish muhim pedagogik va falsafiy vazifalardan biridir. Bunda tarbiya faqat ma’lum axloqiy qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. U insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, hayotiy maqsadlari, o‘z-o‘zini anglashi va boshqalarga munosabatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi Sharq va G‘arb falsafasida turli tarixiy, diniy va madaniy sharoitlarda tadqiq etilgan. Sharq tafakkurida insonning komillikka erishishi, nafsni tiyish, ilm va odobni egallash, ezgu amal qilish masalalariga katta e’tibor berilgan. G‘arb falsafasida esa axloqiy fazilat, aql, burch, erkin iroda, axloqiy tanlov va shaxs mas’uliyati kabi masalalar keng o‘rganilgan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Sharq va G‘arb faylasuflarining ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning bugungi ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq va G‘arb faylasuflarining ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini o‘rganish uzoq tarixiy davrni qamrab oladigan, falsafa, pedagogika, axloqshunoslik va ma’naviyatshunoslik fanlari kesishmasida shakllangan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlari, fazilatlarni shakllantirish, tarbiyaning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni turli davr mutafakkirlari tomonidan o‘ziga xos tarzda talqin qilingan. Sharq falsafiy tafakkurining ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasiga oid eng muhim manbalaridan biri Abu Nasr Forobiyning falsafiy merosidir. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari inson, jamiyat, davlat va baxt-saodat masalalarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilishi bilan alohida ahamiyatga ega [1]. Mutafakkir insonning haqiqiy kamoloti bilim va fazilatlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Forobiy qarashlarida axloqiy

tarbiya faqat shaxsiy xulq-atvorni tartibga soluvchi vosita emas, balki fozil jamiyatni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida aql, bilim, ezgulik, adolat va baxt-saodat tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘langan. Forobiy merosining mavzuga oid ilmiy ahamiyati shundaki, u inson tarbiyasini jamiyat taraqqiyotidan ajratib qaramaydi. Fozil jamiyatni shakllantirish uchun fozil insonlarni tarbiyalash zarur, degan g‘oya uning falsafiy qarashlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu sababli Forobiy asarlari ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi.

Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-falsafiy merosi ham ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ibn Sinoning pedagogik qarashlarida insonning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi bir butun jarayon sifatida qaraladi. Uning fikricha, ta’lim va tarbiya bolaning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va tabiiy qobiliyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Mutafakkir insonda yaxshi odatlarni shakllantirish va yomon xatti-harakatlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratadi. Ibn Sino merosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning tarbiya haqidagi qarashlari bugungi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan ham ma’lum darajada uyg‘unlashadi [3].

Abu Rayhon Beruniy asarlari ham mazkur mavzu doirasida alohida ilmiy qimmatga ega. Beruniyning “Hindiston” asari turli xalqlar, dinlar, urf-odatlar va madaniyatlarni xolisona o‘rganishga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Mutafakkir ilmiy bilishga, haqiqatni izlashga va boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlarini hurmat qilishga katta ahamiyat bergan. Uning qarashlarida ilm insonning dunyoqarashini kengaytiruvchi, jaholat va tor fikrlilikni bartaraf etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi [3]. Beruniy merosini ma’naviy-axloqiy tarbiya nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, undagi ilmiy xolislik, bag‘rikenglik, boshqa madaniyatlarni hurmat qilish va haqiqatga intilish tamoyillari alohida e’tiborga loyiq. Bugungi globallashuv sharoitida ushbu g‘oyalar yoshlarni turli madaniyat va dunyoqarashlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, stereotiplardan xoli fikrlash va ilmiy asoslangan xulosa chiqarishga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiy xalqlar ma’naviy merosida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham axloqiy tarbiya masalasini o‘rganish uchun muhim manbalardan biridir. Mazkur asarda insonning jamiyatdagi o‘rni, davlat boshqaruvi, adolat, aql, bilim, qanoat, odob va mas’uliyat kabi masalalar keng yoritilgan. Asarning asosiy g‘oyalaridan biri jamiyat farovonligi uning a’zolarining axloqiy fazilatlariga bog‘liq ekanini ko‘rsatishdan iborat. “Qutadg‘u bilig”dagi qahramonlar orqali adolat, baxt, aql va qanoat kabi tushunchalarning ramziy ifodalanishi asarning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada oshiradi. Yusuf Xos Hojib insonning bilimli bo‘lishi bilan bir qatorda odobli, halol va mas’uliyatli bo‘lishi zarurligini ilgari suradi [4]. Shu jihatdan mazkur asar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligini ochib beruvchi muhim adabiy-falsafiy manba hisoblanadi.

Alisher Navoiyning adabiy-falsafiy merosi ham ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasida katta ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, “Mahbub ul-qulub” asarida insonning axloqiy qiyofasi, yaxshi va yomon xulq, adolat, saxovat, kamtarlik, mehnatsevarlik, ilm va odob masalalari keng yoritilgan. Navoiy insonning haqiqiy qadrini uning mansabi yoki boyligi bilan emas, balki ma’naviy fazilatlari va jamiyatga foydasi bilan belgilaydi. Navoiy ijodining tahlili shuni ko‘rsatadiki, undagi komil inson g‘oyasi shaxsning ichki dunyosi va amaliy faoliyatining uyg‘unligiga asoslanadi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola Sharq va G‘arb faylasuflarining ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Mavzu doirasida Sharq falsafiy an’anasining vakillari sifatida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy qarashlari tanlab olindi. G‘arb falsafasi doirasida esa Suqrot, Aflotun, Aristotel, Jan-Jak Russo va Immanuil Kantning axloq va tarbiyaga oid qarashlari o‘rganildi. Ushbu mutafakkirlarning tanlanishiga ularning inson kamoloti, axloqiy fazilat, ta’lim-tarbiya, bilim, ezgulik, adolat, erkinlik va mas’uliyat masalalarini falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilganligi asos bo‘ldi. Xususan, Abu Nasr Forobiyning fazilatli inson va fozil jamiyat haqidagi qarashlari Aristotelning fazilat va baxt-saodat haqidagi ta’limoti bilan qiyoslandi. Har ikki mutafakkir insonning yaxshi hayot kechirishi va baxt-saodatga erishishini axloqiy fazilatlar bilan bog‘laydi. Biroq Forobiy bu masalani ko‘proq fozil jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq holda talqin qilsa, Aristotel insonning individual axloqiy faoliyati va odatlari masalasiga katta e’tibor beradi.

Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning tarbiya jarayonida insonning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish haqidagi qarashlari Jan-Jak Russoning bolaning tabiiy rivojlanishi va individual imkoniyatlarini e’tiborga olish haqidagi g‘oyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur taqqoslash orqali turli tarixiy davrlarga mansub ikki mutafakkirning tarbiya jarayonida shaxs xususiyatlariga e’tibor qaratganligi aniqlandi. Suqrotning o‘z-o‘zini anglash, savol berish va bilim orqali axloqiy haqiqatni izlash haqidagi qarashlari esa Sharq mutafakkirlarining ilm-ma’rifat va insonning o‘zini tarbiyalashi haqidagi fikrlari bilan qiyoslandi. Bunday qiyoslash Sharq va G‘arb tafakkurida bilimning insonni ma’naviy jihatdan rivojlantirishdagi o‘rni umumiy metodologik jihat sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Sharq va G‘arb faylasuflarining ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini qiyosiy o‘rganish natijasida insonning ma’naviy kamoloti masalasi turli falsafiy maktablarda o‘ziga xos mazmun va shaklda talqin qilingan bo‘lsada, ularni birlashtiruvchi umumiy umuminsoniy tamoyillar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot davomida Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Suqrot, Aflotun, Aristotel, Jan-Jak Russo va Immanuil Kant qarashlari insonning axloqiy shakllanishi, tarbiyaning maqsadi, bilim va axloq munosabati, fazilatlarning shakllanishi hamda shaxs va jamiyat munosabati mezonlari asosida tahlil qilindi. Forobiy qarashlarini tahlil qilish natijasida ma’naviy-axloqiy tarbiya ikki darajada namoyon bo‘lishi aniqlandi. Birinchisi — shaxsning individual kamoloti, ikkinchisi — uning jamiyatdagi faoliyati. Demak, insonning ma’naviy yetukligi faqat uning ichki dunyosi bilan cheklanmaydi, balki uning jamiyatdagi xatti-harakatlari va boshqa insonlar bilan munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino qarashlarida ham inson kamoloti kompleks jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkirning pedagogik-falsafiy qarashlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilishi kerak. Bu natija zamonaviy ta’limdagi “har tomonlama rivojlangan shaxs” konsepsiyasi bilan mazmunan uyg‘unlashadi.

Alisher Navoiy qarashlarida esa inson kamoloti avvalo uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi orqali baholanadi. Navoiy asarlarida ilmli bo‘lishning o‘zi yetarli emasligi, inson bilimini ezgu maqsadlarga yo‘naltirishi kerakligi haqidagi g‘oya ustuvor ahamiyatga ega [6]. Shundan kelib chiqib, tadqiqotda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy natijasi sifatida “bilim + axloq + amaliy faoliyat” uyg‘unligi belgilandi.

G‘arb falsafasida ham inson kamoloti axloqiy fazilatlar bilan chambarchas bog‘langan. Aristotelning qarashlari ayniqsa bu jihatdan muhimdir. Uning fikricha, insonning baxtli hayoti fazilatli faoliyat bilan bog‘liq [7]. Tadqiqot davomida Aristotelning ushbu yondashuvi Forobiy va Navoiy qarashlari bilan qiyoslanganda, uchala mutafakkirda ham insonning haqiqiy kamoloti uning amaliy xatti-harakatlari bilan bog‘lanishi aniqlandi.

- Bilim va axloq munosabati eng muhim tadqiqot tahlili usullarida hisoblanadi. Tadqiqotning muhim natijalaridan biri — Sharq va G‘arb mutafakkirlarining aksariyatida bilim va axloq o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligi haqidagi xulosadir.

Suqrot falsafasida bilim insonning axloqiy xatti-harakatlarini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Uning “O‘zingni angla” tamoyili shaxsning o‘z xatti-harakatlarini anglash, o‘zining axloqiy pozitsiyasini shakllantirish va o‘z ustida ishlash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv Sharq falsafasidagi

o‘z-o‘zini tarbiyalash va ma’naviy kamolot g‘oyalari bilan mazmunan yaqinlikka ega [8].

Forobiy va Ibn Sino qarashlarida ham ilm inson kamolotining asosiy shartlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Biroq tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Sharq mutafakkirlari uchun ilmning o‘zi mustaqil maqsad emas. Ilm insonni ezgulikka, adolatga va jamiyatga foydali faoliyatga yo‘naltirishi kerak. Beruniy merosining tahlili esa ilmning yana bir muhim funksiyasini — xolis va asoslangan fikrlashni shakllantirish vazifasini ko‘rsatdi. Uning turli xalqlar va madaniyatlarni o‘rganishdagi ilmiy yondashuvi yoshlarni stereotip va biryoqlama qarashlardan xoli bo‘lishga o‘rgatish nuqtayi nazaridan katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Tarbiyada shaxsning individual xususiyatlari eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayonida shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi aniqlandi. Ibn Sino va Jan-Jak Russo qarashlarini qiyosiy tahlil qilish bu fikrni asoslash imkonini berdi. Ibn Sino tarbiya jarayonida bolaning yoshi, qobiliyati va tabiiy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlagan. Russo esa bolaning tabiiy rivojlanishi va mustaqil tajribasiga katta ahamiyat bergan. Garchi bu ikki mutafakkir turli davr va madaniy muhit vakillari bo‘lsa-da, ularning qarashlarida tarbiyalanuvchi shaxsini individual subyekt sifatida ko‘rish umumiy jihat sifatida namoyon bo‘ladi [9]. Mazkur natija zamonaviy pedagogika uchun ham muhimdir. Bir xil tarbiyaviy usulni barcha o‘quvchilarga bir xil qo‘llash har doim ham samarali natija bermaydi. Shaxsning yoshi, qiziqishi, qobiliyati, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy tajribasini hisobga olish ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Shaxs va jamiyat munosabatlarida Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari tahlili shaxsning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jamiyatdan ajralgan holda amalga oshmasligini ko‘rsatdi. Forobiy va Yusuf Xos Hojib qarashlarida shaxsning axloqiy qiyofasi jamiyat farovonligi bilan bevosita bog‘langan. Forobiy fozil jamiyatni shakllantirish uchun fozil insonlar zarurligini ta’kidlaydi. Yusuf Xos Hojib esa davlat va jamiyatning barqarorligi adolat, aql, bilim va mas’uliyat kabi qadriyatlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Navoiy ijodida ham insonning jamiyatga foydasi va boshqalarga yaxshilik qilishi uning ma’naviy qadrini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. G‘arb falsafasida ushbu masala Aflotun va Aristotel qarashlarida ham o‘z ifodasini topadi. Aflotun ta’lim va tarbiyani ideal davlatni shakllantirishning muhim vositasi sifatida ko‘rsa, Aristotel insonni “ijtimoiy mavjudot” sifatida talqin qiladi.

Xulosa va takliflar. Sharq va G‘arb faylasuflarining ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inson kamoloti, uning axloqiy fazilatlari va jamiyatdagi munosib o‘rni barcha davrlarda muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Sharq mutafakkirlari ma’naviy-axloqiy tarbiyada insonning ichki dunyosi, odob-axloqi, halolligi, adolatliligi, ilmga intilishi va komillikka erishishini asosiy mezon sifatida ko‘rganlar. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida barkamol insonni tarbiyalash, ezgulik va adolatni qaror toptirish g‘oyalari keng yoritilgan.

G‘arb faylasuflari esa ma’naviy-axloqiy tarbiyani insonning aqliy rivojlanishi, erkin fikrlashi, ezgulikni anglab yetishi, mas’uliyat va fuqarolik burchini his qilishi bilan bog‘laganlar. Suqrot, Aflotun, Arastu, Immanuil Kant kabi mutafakkirlarning qarashlarida insonning axloqiy tanlovi, fazilatlarni shakllantirish, aql va irodaning uyg‘unligi muhim o‘rin egallaydi.

Sharq va G‘arb falsafasidagi yondashuvlar o‘rtasida ayrim farqlar mavjud bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihatlar juda ko‘p. Jumladan, halollik, adolat, ezgulik, insonparvarlik, bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va jamiyat oldidagi mas’uliyat kabi qadriyatlar har ikki an’anada ham yuksak baholangan. Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiya faqat ma’lum bir xalq yoki madaniyatga xos tushuncha emas, balki butun insoniyat uchun umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatdir. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ilg‘or g‘oyalarini uyg‘unlashtirish, ularni zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish barkamol, mustaqil fikrlaydigan va yuksak axloqiy fazilatlarga ega avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki avvalo yoshlarni milliy qadryatlarga sodiq, yuksak ma’naviyatli yoshlar bo‘lishi uchun tarixiy yodgorliklar, ma’rifiy maskanlar, san’at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko‘targan inshootlarga uyushmagan yoshlar va talabalarning ekskursiyalarini tashkil qilish g‘oyasini ham keng joriy qilish kerak. Chunki bu tarmoq o‘tmish bilan bugungi kun o‘rtasidai ko‘prik vositasini o‘tab beradi. Shuningdek o‘lkashunoslik va Vatanimiz tarixiga oid to‘garaklar ishini jonlantirish orqali esa ulardagi har qanday mahoratni, mahorat maktabi sifatida to‘ldirish mumkin.

Jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma’naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san‟atkor, huquqshunos, ta’lim va fan arboblari, mehnat faxriylari, sog‘liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish vositasi bilan yuksak madaniyatli yoshlar tarbiya qilinadi. Mahallalarda uyushmagan yoshlarni va talabalarining shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat arboblari, mehnat faxriylari kabi taniqli kishilar bilan uchrashuvlarini uyushtirib borish bilan esa jamiyatdan ajralib qolgan har qanday avlodni fikrni tibglash va qo‘llab quvvatlash tushunchasi jonlantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri / Tarjimon A. Irisov. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. — 160 b.
2. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. 1-jild. — Toshkent: Fan, 1993. — 544 b.
3. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston / Tarjimon A. Rasulov. — Toshkent: Fan, 1965. — 536 b.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. — Toshkent: Fan, 1971. — 964 b.
5. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983. — 112 b.
6. Navoiy, Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 14-tom: Mahbub ul-qulub. — Toshkent: Fan, 1998. — 304 b.
7. Aflotun. Davlat / Tarjimon U. Jo‘raev. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. — 464 b.
8. Aristotel. Nikomax axloqi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. — 320 b.
9. Russo, Jan-Jak. Emil yoki tarbiya to‘g‘risida. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995. — 416 b.